

KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARNI ESHITISH IDROKI VA NUTQINI SHAKLLANTIRISH ORQALI INKLYUZIV JAMIYATGA INTEGRATSIYA QILISH

Raximova Xurshidaxon Sadikovna, Akbarov Sardorjon Sodiqjon o'g'li

QDPI Maxsus pedagogika kafedrası v/b dotsenti (PhD)

QDPI Maxsus pedagogika logopediya yo'nalishi 2 bosqich talabasi

[**hurshidahon1991rahimova@mail.ru**](mailto:hurshidahon1991rahimova@mail.ru)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lgan eshitishda nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalarni eshitish idroki va talaffuzini shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Koxlear implantli bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish orqali inklyuziv jamiyatga integratsiya qilishda qo'llaniluvchi usul va vositalar yoritilgan. Implantli bolalarni eshitish idrokini rivojlantirib talaffuz malakalarini shakllantirishga oid usullar keltirilgan.

Kalit so'zlar: koxlear, jarrohlik, inklyuziv, integratsiya, mashg'ulot, reabilitatsiya, didaktik ta'minoti, mutahassis, talaffuz malakasi, eshitish idroki, nutqiy tovush, nonutqiy tovush

ИНТЕГРАЦИЯ ДЕТЕЙ С КОХЛЕАРНЫМИ ИМПЛАНТАТАМИ В ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБЩЕСТВО ЧЕРЕЗ ФОРМИРОВАНИЕ СЛУХОВОГО ВОСПРИЯТИЯ И РЕЧИ

Рахимова Хуршидахан Садыковна, сын Акбарова Сардаржана Садикжана

Доцент (PhD) кафедры специальной педагогики КГПИ

КГПИ Специальная педагогика, логопедия, студентка 2 ступени

[**hurshidahon1991rahimova@mail.ru**](mailto:hurshidahon1991rahimova@mail.ru)

Аннотация: В данной статье представлены сведения о формировании слухового восприятия и произношения у слабослышащих детей с кохлеарными имплантами, что является одним из актуальных вопросов. Освещены методы и средства, используемые при интеграции детей с кохлеарными имплантами в инклюзивное общество через формирование навыков произношения. Представлены методики развития произносительных навыков у детей с имплантами.

Ключевые слова: кохлеарный, хирургия, инклюзивный, интеграция, обучение, реабилитация, дидактическое сопровождение, специалист, произносительные навыки, слуховое восприятие, речевой звук, неречевой звук

INTEGRATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS INTO INCLUSIVE SOCIETY THROUGH FORMATION OF HEARING PERCEPTION AND SPEECH

*Rakhimova Khurshidakhan Sadikovna, son of Akbarov Sardarjan Sadiqjan
Associate Professor (PhD) of the Department of Special Pedagogy of Kokan State
Pedagogical Institute*

*Kokan State Pedagogical Institute Special pedagogy, speech therapy, 2nd stage student
hurshidahon1991rahimova@mail.ru*

Abstract: *This article presents information on the formation of auditory perception and pronunciation of hearing impaired children with cochlear implants, which is one of the current issues. The methods and tools used in the integration of children with cochlear implants into an inclusive society through the formation of pronunciation skills are highlighted. Methods of developing pronunciation skills of children with implants are presented.*

Key words: *cochlear, surgery, inclusive, integration, training, rehabilitation, didactic support, specialist, pronunciation skills, auditory perception, speech sound, non-speech sound*

KIRISH.

Qadimda eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlar gapirish imkoniyatiga ega bo'lishmagan. Hozirgi kunda texnika rivojlangani sari eshitish imkoniyatini ta'minlab beruvchi mo'jizaviy qurulma koxlear implantatsiya operatsiyasi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu qurulma eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlarni biz sog'lom insonlar kabi eshitish imkoniyatini ta'minlab beradi. Albatta buning uchun bir qancha mutahassislar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan reabilitatsiya ishlarini amalga oshirishadi. Reabilitatsiya ishlarida surdopedagog va logopedlarning o'rni katta hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda implantli bolalarning reabilitatsiya jarayoning samarasi implantli bolalarni inklyuziv ta'lim va inklyuziv jamiyatga integratsiya qilish uchun muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish, mazkur toifa bolalarni har tomonlama kompleks rivojlantirishning innovatsion va

axborot-kommunikasion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish”¹ ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada, mamlakatimizda sog‘lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarni har tomonlama sifatli ta‘lim bilan ta‘minlash, mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi[6]. Ta‘lim tizimini joriy etish har doim ma‘lum bir qonun-qoidalarga, tamoyillarga va asoslarga tayanishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning didaktik ta‘minoti xam muhim pedagogik shartlardan hisoblanadi.


Eshitish idrokiga esa, eshitish qoldig‘ini rivojlantirish orqali erishiladi. Buning uchun esa, muntazam bolada qo‘llaniluvchi ovoz kuchaytirib beruvchi apparatlar yoki eshitishni tiklovchi boshqa moslamalarning ta‘siri zarurdir. Ana shunday vostalardan biri sifatida qo‘llanilib kelinayotgan koxlear implantasiya ham eshitmaydigan bolalarni o‘zgalarning nutqini eshitishga, o‘z nutqini anglashga o‘rgatadi. Koxlear implantasiya kompleks chora-tadbirlar tizimi ekanligi Rossiya olimlari I.V. Koroleva va O.V. Zontovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda asoslab berilgan[1].

I.V. Korolevaning fikricha, ***koxlear implantatsiya*** – bu ichki quloqqa eshitish nervining afferent tolalarini bevosita elektrostimulyatsiya (faollashuv) qilish yo‘li bilan eshitish sezgisini tiklash maqsadida elektrodlar tizimini joylash tushuniladi[2].

E. V. Mironovanning ta‘kidlashicha: “Past eshituvchi kishining o‘rta qulog‘ini operatsiya qilish jarayonida shilliq o‘ramasiga ta‘minot blokiga ulangan elektrod tasodifan tegib ketadi va mijoz o‘zining qulog‘ini avvalgidan ko‘ra yaxshiroq eshityapti, deb his qiladi”[1]. Shu bilan eshitishni elektr stimulyatsiyasi (faollashuvi) orqali tiklash imkoniyati yaratildi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

Koxlear implantatsiya tizimi



Tadqiqot davomida biz koxlear implantli bolalar bilan ishlashda zarur bo'lgan didaktik ta'minotning turlarini ajratdik:



1-rasm. Koxlear implantli bolalar bilan ishlashning didaktik ta'minoti turlari

1. Koxlear implantli bolalarga nonutqiy tovushlarni farqlashga o'rgatuvchi vositalar:

-urib chalinadiganlar: baraban, turli hayotda uchraydigan ovozlarni eshittirishga yordam beruvchi predmetlar;

-puflab chalinadiganlar: pufak, velosiped signali, karnay (o'yinchoqli);

-oshxona buyumlari ovozini farqlashga o'rgatish uchun vositalar;

- transportlarning ovozini farqlashga o'rgatuvchi vositalar;
- hayvonlar ovozini farqlashga o'rgatuvchi vositalar;
- hayotda uchraydigan suv, shamol, yomg'ir va boshqa ovozlarni farqlashga o'rgatuvchi vositalar;

- qushlarning ovozini farqlashga o'rgatuvchi vositalar;
- turli signallarni eshitish va farqlashga o'rgatuvchi vositalar.

2. Nutqiy tovushlarni eshitib farqlashga o'rgatuvchi vositalar:

- oila a'zolarining ovozi yozilgan audio;
- o'rtoqlari ovozi yozilgan audio;
- qo'shnilarining ovozlari yozilgan audio;
- she'r yozilgan audio;
- ertak yozilgan audio;
- multfilmlar;
- bolalar badiiy filmi;

-kamida 30 ta predmetlar guruhi nomlari aytib yozilgan audio: ranglar, shakllar, fasllar, oziq-ovqatlar, kiyimlar, hayvonlar, yotoqxona buyumlari, yuvinish vositalari, idishlar, qushlar, gullar, daraxtlar, o'yinchoqlar, transportlar, mevalar, sabzavotlar, o'quv qurollari, sport anjomlari, elektr jixozlari, yotoqxona jihozlari[4].

TADQIQOT METADALOGIYASI.


Maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalarni sog'lom insonlar qatoriga qo'shish uchun eshitishga va talaffuzga o'rgatish bo'yisha usul - vositalar berilgan bo'lib, mutahassis, ota-onalar amaliyotda ushbu usullardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil qilishlari hamda og'zaki nutqni rivojlantirish ishlari o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunning yangi tahririga ko'ra, qonunga har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqliligini ta'minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan "inklyuziv ta'lim" tushunchasi ham kiritildi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi

qonunning 55-moddasida rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar ta'lim olish huquqiga egadirlar deyiladi².

Surdopedagogikada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga integratsiya qilishda og'zaki nutqqa o'rgatish, ularni to'laqonli hayotga tayyorlashning muhim omili ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish ishlari quyidagilarni ko'zda tutadi:



2-rasm. Og'zaki nutqni rivojlantirish ishlari

- 1) o'ziga qaratib aytilgan murojaatni tushunish;
- 2) atrofdagilarga tushunarli tarzda gapirish.

Bu ikki jarayon bir-biri bilan bog'liqdir. Nutqni tushunish va ravon so'zlashga o'rgatish ishlari eshitish idrokini rivojlantirish orqali ta'minlanadi.

Koxlear implantasiyadan so'ng bolaning eshitish qobiliyati ustida ishlash ikki vaziyatda olib boriladi:

Tabiiy sharoitda uyda, ko'chada, sayilgohda

- Yetakchi rolni ota-onalar, bolalarning yaqinlari bajaradilar

Mutahassis va ota-onalarning bola bilan olib borgan maqsadli mashg'ulotlari

- Bolalarda eshituv idroki tizimli rivojlanadi

² O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
<https://lex.uz/docs/-5013007>

3-rasm. Koxlear implantli bolaning eshitish qobiliyati ustida ishlash

1. Tabiiy sharoitda, uyda, ko'chada, saylgohlarda va hokazo. Bunday hollarda eshitish qobiliyati tabiiy ravishda, beixtiyor paydo bo'ladi. Bu erda etakchi rolni ota-onalar, bolalarning yaqinlari bajaradilar. Ular ushbu jarayonda qanchalik faol ishtirok etishsa, implantasiya o'z ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajaradi.

2. Mutaxassis va ota-onalarning bola bilan olib borgan maqsadli mashg'ulotlari paytida eshitish idroki intensiv rivojlanadi. Chunki bu mashg'ulotlarda tabiiy sharoitda u qadar rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lmagan ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Bunday bolalarni o'qitishning amaliy tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularni reabilitasiya qilishning muvaffaqiyati amalga oshirilayotgan korreksion-tuzatish ishlarining samaradorligiga, bolalarning shaxsiy xususiyatlari va ularda shakllangan eshitish va gapirishga bo'lgan motivasiyasiga bog'liqdir. Koxlear implantasiyadan keyingi ishlarining samaradorligi yana qator omillarga bog'liqdar. Ularga misol qilib, implantning yoshi, implantasiya paytida nutq va qoldiq eshitishning rivojlanish darajasi, implantasiyadan keyin o'qituvchi va ota-onalarning bola bilan olib boradigan mashg'ulotlarining muntazamligi va intensivligi hamda bolada qo'shimcha kasalliklarning mavjudligi.

Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy jarohatdan keyingi fiziologik tiklanishi hissiy charchash, passiv faoliyat, eshitish idrokining pastligi, verbal va noverbal muloqotdagi nafaollik hamda hayotda ijtimoiy yakkalanish holatlarini adekvat bartaraf etib borish asosida rivojlantirilgan.

Koxlear implantasiyadan keyingi mashg'ulotlarda asosan rasmlar keng qo'llaniladi. Rasmlar mashg'ulotlarning dastlabki davrida juda muhimdir. Rasmni ko'rib, bola so'zni bir butun sifatida idrok etadi va xuddi sog'lom odam so'zlarni global(yalpi) tarzda o'qiyotganimiz singari, ya'ni alohida tovushlarni ajratmaydi. Bu vaziyat so'zlardan gaplarni tuzishda ham sodir bo'ladi. Bolalar va kattalar o'zgalar og'zaki nutqini shunday qabul qilishadi[3].

Koxlear implantli bolalarda eshitish va nutq idrokini rivojlantirish uchun maqbul sharoitlar quyidagilar:

1. Bola har doim koxlear implantni taqqan bo'lishi. Koxlear implantning prosessori yaxshi sozlangan bo'lishi kerak.
2. Bola bilan aloqa qilayotganda, implantning yon tomonida yoki uning oldida bo'lish yaxshiroqdir. Bunday holda, yuzni ekran bilan yopish shart emas. Bola rasmlarga qaraydi va nima qilish kerakligini tushunadi. O'qituvchi bola ro'parasida yoki yonida o'tirishi va prosessor mikrofoniga yaqin gaplashishi sababli, bola nutqni juda aniq eshitadi. Agar bola biror narsani tushunmasa, u har doim o'qituvchiga, oynaga qarab turishi mumkin.
3. Agar bola pedagog nima deganini tushunmasa, iboraning kalit so'zlarini takrorlab, biroz sekinroq, aniq talaffuz qilish kerak.
4. Mashg'ulotlar paytida shovqinlarni yo'q qilish kerak.
5. Doimo bolaning diqqatini atrofdagi tovushlarga va nutqqa qaratish kerak, bola eshitilgan ovozni takrorlaydi. Bu jarayonda pedagogning bola bilan birgalikda qilgan harakatlari ham ijobiy ta'sirini beradi. Bu, ayniqsa, implantasiyadan keyingi birinchi yilda juda muhimdir. Agar bola biron bir tovushni eshitgan bo'lsa, tovush manbaini izlashni o'rgatish kerak.
6. Kichik bolalarda har qanday vokalizasiyani va gapirishga urinishni rag'batlantirish juda muhim. Bunda bolaga eshitish uchun berilgan materialning javobini ham namuna sifatida berish taqozo etiladi. Chunki boladan aytilgan so'zlarni takrorlashni yoki savolga javob berishni so'raganda, uning bunday namuna javoblarga tayanishi qulaylikni his qilish imkoniyatini beradi.
7. Bolaga juft-sherik tovushlarni taqqoslab, eshitish imkonini berish lozim. Bu paytda farqlash va nutqning yakka tovushlarini anglashga o'rgatish kerak.
8. So'zlar va jummalarni tanib olish, ularning ma'nolari bilan bog'liqlik va bolaning ushbu so'zlarning ma'nosini tushunishini tekshirish ko'nikmalarini doimiy ravishda mustahkamlash muhimdir.

9. Bolani koxlear implantasiyaning o'chgan holatiga ham qo'yish kerak. Ertalab yoki uyqudan keyin, bola uchun koxlear implantni qo'yayotganda, birinchi navbatda kuchlanishni oz-oz va 10-20 daqiqadan so'ng oshirish kerak.

10. Agar bola koxlear implantni kiyishni rad etsa, baland tovushlardan qo'rqa, uning kuchini kamaytirish kerak. Agar bola baland tovushlarga yomon munosabatda bo'lishni davom ettirsa, ko'chada, bog'chada, uyda kuchlanishni tinchroq rejimga qo'yib, mashg'ulotlardagina oshirish lozim.

12. Koxlear implantli bolaning diqqat-e'tiborini, qiziqishlari va imkoniyatlarini kuzatish, uning tovushlarni va nutqni eshitish qobiliyatini rivojlantirish va har qanday yutug'ini rag'batlantirish kerak.

13. Koxlear implantli bolalar majburlaganda nutqni yaxshi anglamaydilar, shuning uchun bunday vazifalarni qulay va bolaning qiziqib turgan paytida bajarish tavsiya etiladi.

Koxlear implantni ishga solishning dastlabki davrida korreksiya ishlari - bu eshituv analizi – eshituv idrokini rivojlantirishga, nutqiy va nonutqiy akustik signallarni eshitishni o'rgatishga bag'ishlanadi. SHu bilan birga, bu davr ishlari nutqiy eshituvni rivojlantirish, o'z nutqini tushunish uchun asos va muhim ko'prikdir. Boshqa eshitish o'rnini bosuvchi vositalarga nisbatan koxlear implantant yordamida bolalar nutqni tushunish, gapirish, fikrlashga tez va oson o'rganadilar.

XULOSALAR.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, implantli bolalarni ta'limida ota -onalar va mutahassislarning o'rni katta bo'lib, bolalarni umumta'lim maktablariga jalb qilish lozim hisoblanadi. Koxlear implantli bola bilan korreksiya ishlarini olib borishda surdopedagog inson uchun eshitish va nutqning asosiy funksiyalarini, biologik, lingvistik, psixologik qonuniyatlarini hisobga olishi kerak. CHunki koxlear implantli bolada ham sog'lom boladagi kabi nutqning shakllanish bosqichlari belgilari namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Koxlear implantli bolalarni sog'lom bolalar kabi eshitib chiroyli gapirishi uchun eshituv-nutqiy rehabilitatsiyaning o'rni katta hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Королева И.В. Этапы развития слухоречевого восприятия и речи у ранооглохших детей с кохлеарным имплантом // Российская оториноларингология, 2008. 197 с.
2. Королева И.В. Кохлеарная имплантация глухих детей и взрослых (электродное протезирование слуха). - СПб.: КАРО, 2008.
3. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "Features of cochlear implantation rehabilitation." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.1 (2023): 333-336.
4. Sadikovna, PhD Raximova Xurshidaxon. "Stages of pedagogical and psychological rehabilitation of children with cochlear implants with hearing impairments." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 192-198.
5. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, et al. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING TASNIFI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Conference Zone*. 2023.
6. Shermatovna, Erkaboyeva Nigora, and Akbarov Sardor Sodiqjon O'g'li. "Conditions of inclusive education." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.7 (2022): 1-4.